

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

EGAMBERDIYEV SHAXZOD BAXODIR O'G'LI

**INTERYERNI KO'KALAMZORLASHTIRISHDA *FICUS L.* VA
SCHEFFLERA J.R.FORST. & G.FORST. NING TURLARINI TANLASH
VA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

**06.03.01 – O'rmon ekinlari. Seleksiya, urug'chilik va shaharlarni ko'kalamzorlashtirish.
O'rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o'rmonlarini barpo etish**

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHIKEHT – 2025

Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Egamberdiyev Shaxzod Baxodi o‘g‘li

Interyerni ko‘kalamzorlashtirishda *Ficus* L va *Schefflera* J.R.Forst. & G.Forst.
ning turlarini tanlash va yetishtirish texnologiyasi..... 3

Egamberdiyev Shaxzod Baxodi o‘g‘li

Технология подбора и выращивания видов *Ficus* L. и *Schefflera* J.R.Forst.
& G.Forst. при озеленении интерьеров..... 19

Egamberdiyev Shaxzod Baxodi o‘g‘li

Technology for the selection and cultivation of *Ficus* L. and *Schefflera*
J.R.Forst. & G.Forst. species for interior landscaping 35

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 39

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

EGAMBERDIYEV SHAXZOD BAXODIR O'G'LI

**INTERYERNI KO'KALAMZORLASHTIRISHDA *FICUS L.* VA
SCHEFFLERA J.R.FORST. & G.FORST. NING TURLARINI TANLASH
VA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

**06.03.01 – O'rmon ekinlari. Seleksiya, urug'chilik va shaharlarni ko'kalamzorlashtirish.
O'rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o'rmonlarini barpo etish**

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOHIKEHT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Qx1048 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz tilida (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.tdau.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Berdiyev Erkin Turdaliyevich,
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

To'xtayev Boboqul Yorqulovich
biologiya fanlari doktori, professor

Misirova Surayyo Abdumutalovna
qishloq xo'jaligi fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 11-noyabrdagi soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel: (+99871 260-48-00); faks: (+99871 260-38-60); e-mail:taug-info@edu.uz; Toshkent davlat agrar universiteti Axborot-resurs markazi binosi, 2-qavat, anjumanlar zali).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№555123 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent viloyat, Qibray tumani Universitet ko'chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti, Axborot-resurs markazi binosi. Tel: (+99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 30-oktyabrda tarqatildi.

(2025-yil 14-oktyabrdagi №41- raqamli reestr bayonnomasi)

Sh.I. Asatov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, q.x.f.d., professor

M.Z. Xolmurotov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d.,
dotsent

S.A. Yunusov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida 60 foiz aholi shahar hududlarida yashaydi (1800-yil holatida ushbu ko'rsatkich 3 %), Osiyoda umumiy urbanizatsiya darajasi 50 % bo'lib, o'sish jadal davom etmoqda. Bu shahar hududlari va binolar sonining keskin ko'payishi bilan bog'liq. Bu borada "Xitoyning Chunsin (82 403.00 km²), Guanjou (16 847,00 km²), Pekin (16 411,00 km²) shaharlari yetakchi o'rinda turadi"¹. Shimoliy Amerika bu sohada eng yirik sektorlardan biri bo'lib, gul bozorida yetakchilik qilmoqda. Gollandiya yiliga 1 milliard dona xona o'simliklarini yetishtiradi. 2024-yilda "Global yopiq o'simliklar bozorining qiymati 20,68 milliard USD bo'lib, 2025–2032-yillarda yillik o'sish sur'ati (CAGR) 4,87% ga baholangan"². Yopiq muhitlarning ko'payishi va zamonaviy urbanizatsiya tufayli ofis, uy va ijtimoiy binolarda havoning tarkibining ifloslanishi va havo namligining pasayishi salomatlik muammolariga olib keladi. Shu munosabat bilan, *Ficus* va *Schefflera* o'simliklari yordamida xonalarni ko'kalamzorlashtirish global tendensiyalarga aylanib bormoqda.

Dunyo davlatlarida yirik shahar interyerlarini ko'kalamzorlashtirishda o'simliklarning ahamiyati bo'yicha keng tadqiqotlar olib borilmoqda. Xona o'simliklari xususan, *Ficus* va *Schefflera* turlari atrof-muhit monitoringi, havo sifati, fotosintez, ko'chatchilik, patogenlarga chidamlilik va ekologik moslashuv bo'yicha dunyo bo'ylab keng o'rganilgan. Jumladan, NASA Clean Air Study *Ficus* va *Schefflera* havodagi formaldegid, benzol va trixloroetileni samarali filtrlashi bo'yicha, BAA da o'simliklarning xona havosidagi formaldegid konsentratsiyasini kamaytirish bo'yicha, Nepalda o'simliklarning havo ifloslanishiga chidamliligi bo'yicha, Misrda o'simlik ko'chatlarini yetishtirish bo'yicha, Germaniyada o'simliklarning xona harorati va yorug'lik sharoitiga moslashuvchanligi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, muhim natijalarga erishilmoqda.

Respublikamizda tropik va subtropik o'simliklarni introduksiya qilish bilan bog'liq tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, buning natijasida ko'pgina turlarning morfologiyasi, introduksion baholash ko'rsatkichlari, ayrim turlarni ko'paytirish bo'yicha muayyan natijalarga erishilgan. Biroq *Ficus* va *Schefflera* turlaridan interyerni ko'kalamzorlashtirishda foydalanish va ularni yetishtirish texnologiyasi bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar ishlab chiqilmagan. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasining 30-maqsadida "Aholi tomonidan tomorqalardan samarali foydalanilishi uchun sharoitlar yaratish", 80-maqsadida "Toshkent shahrini aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lgan hududga aylantirish, ko'kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga yetkazish"³ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Shunga asosan interyer uchun *Ficus* va *Schefflera* turkumlarining yuqori manzarali turlarini tanlash, ko'kalamzorlashtirish uchun foydalanish va yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

¹ <https://nonews.co/directory/lists/countries/urban-population>

² <https://www.databridgemarketresearch.com>

³ <https://president.uz/>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-avgustdagi PQ-5209-son “Respublika hududlarida gulchilik va ko‘chatchilik sohaslarini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi, 2021-yil 16-dekabrda PQ-54-son “Tomorqadan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2025-yil 5-martdagi PQ-115-son “Aholi xonadonlarida sanoat usulida mahsulot ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash hamda tomorqa va dehqon xo‘jaliklarida yangi zaxiralarni ishga solishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda sohaga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishlari respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoda interyerni ko‘kalamzorlashtirishga doir ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish keng rivojlangan. Ushbu yo‘nalishda K. Yamane (2002), E. Veneklaas (2002), M. Silva (2002), A. Abouzari (2012), E.J. Mbossso (2012), A.M. Khomami (2013), M.D. Farinas (2014), F.Torpy (2014), L. Wang (2020), A. Thatcher (2020), F. Scamoni (2022), X. Yun (2022) lar o‘z ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

Markaziy Osiyo davlatlarida gul o‘simliklarini introduksiya ko‘rsatkichlari va ularni tadqiq etish ishlari dastlab I.T. Remeskevich (1957), P.K. Ozolin (1967), N.M. Karmishina (1967), K. Kravchenko (1973), F.N. Rusanov (1974), A.K. Kiyatkin (1979), V.P. Pechenetsin (1979), H.F. Zinoveva (1988), D.M. Babin (2000), A.A. Karpov (2001), E.Y. Ilina (2005) lar tomonidan olib borilgan. Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida tropik va subtropik o‘simliklarning introduksion baholash va sistematikasiga e‘tibor qaratilgan.

Respublikamizda gulchilik sohasi bo‘yicha ilmiy ishlar X. CH. Bo‘riyev (1999), L. Abdurahmonov (1999), N.M. Naraliyeva (2005), S.A. Misirova (2015), S.X. Xushvaqto‘v (2017), E.U. Umurzoqov (2017), Sh.A. Xolova (2019), E.T. Berdiyev (2022), M.Z. Xolmurotov (2022) lar tomonidan olib borilgan. Ilmiy ishlarning ko‘p qismida ochiq maydonlarda o‘stiriladigan gul turlari haqida bayon etilgan.

Muammoni o‘rganish jarayonida interyer o‘simliklarining istiqbolli turlarini tanlab olish va ilmiy tahlil qilish, ularning atrof-muhit va mikroiklim omillariga munosabati, yorug‘lik, substrat, sug‘orish me‘yorlari, hamda ko‘paytirishning tejankor uslublarini ishlab chiqish jihati bo‘yicha tadqiq qilinmaganligi aniqlandi. Yuqorida qayd etilgan holatlar va ilmiy muammolar adabiyotlarda yetarlicha tadqiq etilmaganligi, ilmiy ish mavzusining ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo‘ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat agrar universiteti O‘rmonchilik va landshaft dizayn kafedrasining №15-1-raqamli “O‘rmonchilik va landshaft dizayn texnologiyalarini

takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan (2021-2024-yy).

Tadqiqotning maqsadi: Interyerni ko‘kalamzorlashtirish uchun *Ficus* va *Schefflera* turkumi turlarini tanlash va ularni yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Ficus va *Schefflera* turkumining istiqbolli turlarini ajratib olish hamda bioekologiyasi va manzaraviylik ko‘rsatkichlarini aniqlash;

turkumning yuqori manzarali turlarini vegetativ ko‘paytirishning samarali usullarini aniqlash;

turkum turlarini o‘stirish uchun substrat tarkibini aniqlash;

turkum turlarini parvarishlashda sug‘orish me‘yorlari va maqbul o‘g‘it turlarini aniqlash;

turkum turlarini o‘stirish uchun yorug‘lik ko‘rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida *Ficus* L turkumining, *Ficus benjamina*, *Ficus elastica*, *Ficus microcarpa* va *Schefflera* J.R.Forst. & G.Forst. turkumining *Schefflera arboricola*, *Schefflera digitata*, *Schefflera actinophylla* turlari olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib – *Ficus* va *Schefflera* turlarining bioekologiyasi, o‘simlikning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar, ko‘paytirish usullari, substrat tarkibi, sug‘orish me‘yori, o‘g‘itlash me‘yori, yorug‘lik ko‘rsatkichlari xizmat qilgan.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqot issiqxona va laboratoriya sharoitida olib borilib, o‘simliklarning morfologik belgilarini ajratish va aniqlash, N. Vermeulenning “Encyclopedia of House Plants” (1999), ildiz va barglar anatomiyasi R. Oguchi “Leaf anatomy and function” (2018), fenologik kuzatuvlar E. Kochning “Guidelines for plant phenological observations” (2007), manzaraviyligi va chidamliligi xususiyati bo‘yicha baholash P. Santagostini “Assessment of the visual quality of ornamental plants: Comparison of three methodologies in the case of the rosebush” (2014), F. Gilman “Choosing suitable trees for urban and suburban sites: site evaluation and species selection” (2007), vegetativ usulda ko‘paytirish Hartmannning “Plant Propagation: Principles and Practices”, o‘simlikning namlikka bo‘lgan tanqisligi G. Estefan “Methods of soil, plant, and water analysis” (2013), substrat tayyorlash S. Sonneveld “Substrates: Chemical characteristics and preparation” substratdagi organik va anorganik ozuqaviy me‘yorlari A. Silber “Nutrition of substrate-grown plants”, o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishini tahlil qilish A. Dambreville “Analysing growth and development of plants jointly using developmental growth stages” (2015), o‘simlikdagi fiziologik jarayonlar L. Taiz “Fisiologia vegetal”, yorug‘likka bo‘lgan munosabati S. Chiang “Reaching natural growth: Light quality effects on plant performance in indoor growth facilities” (2020) uslublariga asoslangan holda amalga oshirilgan, olingan ma‘lumotlarni statistik qayta ishlashda umum qabul qilingan mezonlar hamda A. Qayimov va boshqalar tavsiya etgan uslubga asosan bajarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marta O'zbekistonda ilmiy asosda *Ficus* va *Schefflera* turkumi turlarining interyerda balandligi 1,5–3,0 m oralig'ida o'sishi hamda manzaraviyligi bo'yicha *F. microcarpa* (5 ball), *F. benjamina* (4,3 ball) va *S. arboricola* (4,5 ball) eng yuqori ko'rsatkichiga ega ekanligi aniqlangan;

F. benjamina yashil qalamchalari torf substratida IBA ning 3000 mg/l konsentratsiyasida 76,5%, *F. elastica* 2000 mg/l konsentratsiyasida 94,25%, *S. arboricola* yarim yog'ochlashgan qalamchalari esa 2000 mg/l konsentratsiyasida 85% ildiz hosil qilishi va yashab ketishi isbotlangan;

Ficus va *Schefflera* ko'chatlari bahorda 50% torf, 30% perlit va 20% kokos tolasi nisbatidagi substratiga ko'chirilganda uning bo'yi 9,5 sm, ildizi 7,5 sm o'sishi va 18 dona yangi barg hosil qilishi aniqlangan;

Ficus va *Schefflera* turlarini bahorda (0,4 litr 4 kunda) va yozda (0,5 litr 3 kunda) sug'orish hajmini oshirish, qishda esa kamaytirish (0,2–0,25 litr har 7–10 kunda) rivojlanishga yaxshi ta'sir etgani (*Ficus* turlarida bo'y 7,5–9 sm, barg 14–17 dona, ildiz 6,0–7,0 sm; *Schefflera*da bo'y 7–8,8 sm, ildiz 5,8–7,2 sm) hamda Kristallon, Ferovit o'g'itlarining ta'sirida yashil massa, barg soni, bo'y o'sishi 60–80% ga oshgani isbotlangan;

Ficus turlari o'sishi uchun 3000–4000 lyuks va 5–8 soat quyosh nuri, *Schefflera* uchun esa 2000–3000 lyuks va 4–7 soat yorug'lik maqbul me'yor ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ficus va *Schefflera* turkumi turlarini interyer muhitida o'stirish uchun shift balandligidagi 3-metrdan kam bo'lmagan xona zarurligi va unda o'simlik 15–30 yilgacha yasashi aniqlangan;

Ficus va *Schefflera* turkumi turlari vegetativ qalamchalari yordamida IBA ning 2000–3000 mg/l konsentratsiyasida qisqa muddatda saqlash usulida samarali ko'payishi hamda ildiz hosil qilish ko'rsatkichi o'rtacha 85,25 % ni tashkil etishi aniqlangan.

Ficus va *Schefflera* turkumi turlari yengil va g'ovak hamda kislotali miqdori 5,5 – 6,5 pH atrofida bo'lgan substratda yaxshi o'sib rivojlanishi, substrat sifatida torf, perlit, kokos tolasining birliklarining 2:1:1 nisbatdagi aralashmasida foydalanganda yuqori rivojlanish ko'rsatkichlarini qayd etishi aniqlangan.

Ficus va *Schefflera* turkumi turlarini issiq kunlari 500 ml dan har 5 kunda sug'orish talab etilishi hamda sug'orish jarayonida Kristallon, Ferovit o'g'itlaridan foydalanish o'simlikning o'sish va manzaraviylik ko'rsatkichlarini 60–80 % gacha oshirishi aniqlangan.

Ficus turkumi turlari qisman yarim soya va quyosh nurlari 5–8 soatgacha saqlanib turadigan xonalarda, *Schefflera* turkumi turlari yarim soya va quyosh nurlari 4–7 soatgacha saqlanib turadigan xonalarda o'sishi hamda har ikki turkum vakillari ham to'g'ri tushuvchi nurlarda barglari zararlanishi aniqlangan.

1 sotix maydonda 40 000 dona qalamcha ekilib, 32 000 dona ko'chat yetishtirilib. 3 yillik davrda sof daromad 232920 ming so'mga, rentabellik esa 221% ga yetishi aniqlangan.

3 yillik ko'chat yetishtirish jarayonida rentabellik 355% gacha oshgani va issiqxona maydonini kengaytirish, yuqori navli qalamchalarni tanlash orqali uzoq muddatli daromad manbai yaratilishi amaliy sharoitda isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tajribalar aprobatsiya komissiyalari tomonidan ijobiy baholanganligi; ilmiy tadqiqotlar to'g'risidagi hisobotlarni TDAU ning O'rmonchilik va landshaft dizayn kafedrasida muhokama qilinganligi va ijobiy taqriz berilganligi; eksperimental ma'lumotlarning statistik tahlildan o'tkazilganligi va olingan ilmiy natijalarning ishlab chiqarishga joriy etilganligi; tadqiqot natijalari respublika va chet elda o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi hamda ilmiy jurnallarda maqolalar chop etilishi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, O'zbekistonda interyer o'simliklarini fenologik kuzatuvlar asosida bioekologik ko'rsatkichlarini baholash va o'stirish uchun substrat tarkibi, sug'orish, yorug'lik ko'rsatkichlarining me'yorlari hamda ularni vegetativ usulda ko'paytirish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ilmiy asoslangan resurs tejamkor texnologiyalarni texnologik parametrlari va jarayonlarini asoslash bilan yuqori sifatli, tannarxi jihatdan arzon *ficus* va *schefflera* ko'chatlarini yetishtirishga erishildi. O'zbekiston sharoitida interyer mikroiklimiga mos chiroyli manzaraga ega, kasallik va zararkunandalarga chidamli, xona sharoitida o'suvchi eng istiqbolli turlar tanlangan. Ularning bioekologiyasi va ko'paytirish texnologiyasi asosida ko'kalamzorlashtirish uchun tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *Ficus* L. turkumining *Ficus microcarpa*, *Ficus benjamina*, *Ficus elastica* va *Schefflera* J.R.Forst. & G.Forst. turkumining *Schefflera arboricola*, *Schefflera digitata*, *Schefflera actinophylla* turlarini yetishtirish texnologiyasi ishlab chiqish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

Toshkent botanika bog'i issiqxonasi kompleksining 1,5 sotix maydonida 4 tur va formalardan vegetativ usulda ko'paytirish ishlanmasi joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023-yil 21-iyuldagi 4/1255-1536-son ma'lumotnomasi). Natijada *Ficus* va *Schefflera* turkumi turlarining 1250 tup ko'chatlari yetishtirilib oranjeriya fondi boyitilgan.

Ficus va *Schefflera* turkumi turlarini vegetativ usulda yetishtirish texnologiyasi ishlanmasi Farg'ona davlat o'rmon xo'jaligi issiqxonasida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 7-avgustdagi 03-03/1-03/3-7792-son ma'lumotnomasi). Ishlanmaning joriy qilinishi natijasida issiqxona sharoitida vegetativ uslubda *Ficus benjamin*, *Ficus elasticum* va *Schefflera arboricola* o'simliklari ko'chatlaridan 400 tup yetishtirishga erishilgan.

Ficus va *Schefflera* turkumi turlari vegetativ usulda yetishtirish texnologiyasi ishlanmasi Ohangaron davlat o'rmon xo'jaligi issiqxonasida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 7-avgustdagi 03-03/1-03/3-7792-son ma'lumotnomasi). Tajriba natijasining joriy qilinishi natijasida *Ficus benjamin* va

Schefflera arboricola o'simliklarining ko'chatlaridan 200 tup yetishtirishga erishilgan. Iqtisodiy samaradorlik 200 mln so'mni tashkil qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta respublika miqyosidagi va 3 ta xalqaro konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 8 ta ilmiy ishlar chop etilgan: jumladan 3 ta maqola O'zR OAK tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, jumladan 1 tasi xorijiy, 4 ta maqola ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallarida jumladan 2 tasi xorijiy hamda 1 ta tavsiyanoma nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dunyo megapolislarida interyerlarni ko'klamzorlashtirishda keng qo'llaniladigan *Ficus* va *Schefflera* turkumining yuqori manzarali turlarini tanlash va ularni yetishtirishning xo'jalik, bioekologik xususiyatlarini baholash, ko'paytirish texnologiyasini ishlab chiqishning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obekt va predmetlari tavsiflangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi bayon etilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning «**Interyerni ko'klamzorlashtirishda *Ficus* va *Schefflera* turlarini tanlash va yetishtirishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, internet ma'lumotlari hamda ko'plab olimlarning ilmiy ishlari o'rganilib, *Ficus* va *Schefflera* turkum vakillarining dunyo megapolislarida interyerlarni ko'klamzorlashtirishda ishlatilishi, ularning tur va navlarining tavsifi, ularni ko'paytirish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar hamda respublikamizda tabiiy tarqalgan turlarning tarqalishini ilmiy asoslanganligi, *ficus* va *schefflera* turlarining bioekologik xususiyatlari, fenologiyasi, tarqalish arealini o'rganish, ko'paytirish texnologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan dastlabki ilmiy-tadqiqot natijalari tahlil etilgan hamda mavzuning dolzarbligi asoslangan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot dasturi, uslubi va sharoitlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida kutilgan natijaga erishish uchun bajarilishi lozim bo'lgan tadqiqot ishlarining dasturi, uslubi va tadqiqot obyektining tuproq-iqlim sharoitlari bayon etilgan. Dasturda belgilangan masalalar ilmiy tadqiqot issiqxona va laboratoriya sharoitida olib borilib, o'simliklarning morfologik belgilarini ajratish va aniqlash, N. Vermeulenning "Encyclopedia of House Plants" (1999), ildiz va barglar anatomiyasi R. Oguchi "Leaf anatomy and function" (2018), fenologik kuzatuvlar E. Kochning "Guidelines for plant phenological observations" (2007), manzaraviyligi va chidamliligi xususiyati bo'yicha baholash P. Santagostini "Assessment of the visual quality of ornamental plants: Comparison of three methodologies in the case of the rosebush" (2014), F. Gilman "Choosing suitable

trees for urban and suburban sites: site evaluation and species selection” (2007), vegetativ usulda ko‘paytirish Hartmannning “Plant Propagation: Principles and Practices”, o‘simlikning namlikka bo‘lgan tanqisligi G. Estefan “Methods of soil, plant, and water analysis” (2013), substrat tayyorlash S. Sonneveld “Substrates: Chemical characteristics and preparation” substratdagi organik va anorganik ozuqaviy me‘yorlari A. Silber “Nutrition of substrate-grown plants”, o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishini tahlil qilish A. Dambreville “Analysing growth and development of plants jointly using developmental growth stages” (2015), o‘simlikdagi fiziologik jarayonlar L. Taiz “Fisiologia vegetal”, yorug‘likka bo‘lgan munosabati S. Chiang “Reaching natural growth: Light quality effects on plant performance in indoor growth facilities” (2020) uslublariga asoslangan holda amalga oshirilgan, olingan ma‘lumotlarni statistik qayta ishlashda umum qabul qilingan mezonlar hamda A. Qayimov va boshqalar tavsiya etgan uslubga asosan bajarilgan.

Xona o‘simliklarini ko‘paytirish Hartmann, H.T., Kester, D.E., Davies, F.T., Geneve, R.L. (1997). Plant Propagation: Principles and Practices: ilmiy uslubiga asoslangan holda amalga oshirildi. Tayyorlangan qalamchalar ildiz hosil qilish jadallashtirish maqsadida o‘sishni boshqaruvchi modda sifatida IBA (Indolbutirat kislota) turli konsentratsiyadagi eritmaları tayyorlab olindi. Tajribalarimiz metodikasiga asolanib biz IBA ning 0, 500, 1000, 2000, 3000, 4000 mg/l dagi 5 xil variantdagi konsentratsiyasini va nazorat sifatida IBA siz eritmalar tayyorlab olindi hamda tayyorlangan yashil, yarim yog‘ochlashgan, yog‘ochlashgan qalamchalar issiqxona sharoitida qisqa va uzoq muddatli saqlash uslubida turli substratli muhitlarga ekildi.

Dissertatsiyaning “***Ficus* va *Schefflera* turkumlarining bioekologiyasi, manzaraviylik turlarini tanlash va ko‘paytirish**” deb nomlangan uchinchi bobida *Ficus* va *Schefflera* turlarining bioekologiyasi va manzaraviylik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan bo‘lib, turkum vakillarining manzaraviy xususiyatlariga baho berilgan.

1-jadval

***Ficus* va *Schefflera* turkumi vakillarini manzaraviyligini baholash natijalari (2020-2022 y.y)**

Tur nomi	Gabitus	Barg rangi	Barg soni	Barg chiroyliligi	Poyasi	Shox zichligi	Shox-shabba uyg‘unligi	Xona sharoitiga moslik	Umumiy baho (1-5)
<i>Ficus microcarpa</i>	5	4	5	4	3	5	5	5	4,5
<i>Ficus benjamina</i>	4	4	5	4	3	5	4	5	4,3
<i>Ficus elastica</i>	4	5	3	5	5	3	4	4	4,1
<i>Schefflera arboricola</i>	5	4	5	4	3	5	5	5	4,5
<i>Schefflera digitata</i>	5	5	4	5	4	4	5	4	4,5
<i>Schefflera actinophylla</i>	4	4	4	5	4	4	4	4	4,1

Manzarali xona o‘simliklari sifatida *Ficus microcarpa*, *Ficus benjamina*, *Schefflera arboricola* va *Schefflera digitata* 4,5 ball bilan eng yuqori bahoga ega. *Ficus microcarpa* bonsai shaklida shox-shabba uyg‘unligi bo‘yicha 5 ball,

Schefflera arboricola soyaga chidamliligi bo'yicha. *Ficus benjamina* zich shoxlanishi va kichik xonalar uchun qulayligi (4,3 ball). *Ficus elastica* va *Schefflera actinophylla* katta interyerlar uchun tavsiya qilinsada, shox-shabba uyg'unligi pastroqligi (4,1 ball) bo'yicha baholandi. Turlar turli sharoitlarga mos bo'lib, olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Ficus benjamin va *Schefflera arboricola* o'simliklarini qalamchalari orqali vegetativ usulda ko'paytirish uchun Botanika bog'i fond oranjereyasida parvarishlanayotgan onalik o'simliklar tanlab olindi. Tanlangan o'simlikda o'tkaziladigan tajribalar qalamchalarni o'simlikning turli qismlaridan olish orqali amalga oshirildi. Birinchi turdagi qalamchalar yashil qalamchalar hisoblanib, o'simlikning uchki shoxlaridan yashil poyaga ega uzunligi 8-12 sm va novda diametri 0.3-0.7 sm atrofida tanlandi. Ikkinchi turdagi qalamchalarni tayyorlash uchun o'simlik shoxlarining o'rta qismidagi o'tgan yilgi o'sishdan yoki bu yilgi yarim yog'ochlashgan uzunligi 10-12 sm va diametri 0.5-1 sm dagi qalamchalar tanlandi. Uchinchi turdagi qalamchalar esa o'simlik shoxlarining oldingi yillardagi yog'ochlashgan qismidan uzunligi 12-15 sm va diametri 0.8-1.2 sm o'lchamda ajratib olindi. Tajribalarimiz metodikasiga asoslanib, biz IBA ning 0 (nazorat), 1000, 2000, 3000, 4000, 5000 mg/l dagi 5 xil variantdagi konsentratsiyasini eritmalari tayyorlab olindi. Tadqiqot olib borish natijalarida quyidagi natijalar olindi.

Ficus benjamina qalamchalari turli IBA konsentratsiyalarida va substratlarda ildizlantirildi. Eng yaxshi natija 3000 mg/l IBA da, yashil qalamchalarda 66.5–76.5%, yarim yog'ochlashganlarda 60.5–73.5%, yog'ochlashganlarda 49.5–61.5% o'simliklar saqlanib qoldi. Torf substrati eng samarali bo'lib, undan keyin Perlit+Torf substrati keldi. 4000 va 5000 mg/l dozalar saqlanishni kamaytirdi.

Ficus elasticum yashil qalamchalari uchun 2000 mg/l IBA moddasida 1-3 soat saqlash va 75-100 mg/l botirib olish regeneratsiya uchun optimal bo'ldi. Yarim yog'ochlashgan qalamchalarda 2000 mg/l IBA bilan 4-8 soat saqlash va 75-100 mg/l botirib olish saqlanish va o'sishni yaxshiladi. Yog'ochlashgan qalamchalarda esa 2000 mg/l IBA bilan 12-16 soat saqlash va 100-150 mg/l konsentratsiya samarali bo'ldi. Eritma miqdori 500-1000 ml atrofida bo'lib, qalamchalar yog'ochlashgani sayin IBA konsentratsiyasi va saqlash vaqti oshdi. Ushbu parametrlar qalamcha turiga qarab regeneratsiyaga ta'sir ko'rsatdi.



1-rasm. *Ficus* turlarining ildiz hosil qilgan qalamchalari

Schefflera arboricola yarim yog'ochlashgan qalamchalarida 2000 mg/l IBA konsentratsiyasida saqlanish 70-85%, ildiz uzunligi 2.2-2.8 sm, ildiz soni 2.8-3.6 dona bo'ldi. Torf va torf+perlit substratlari eng samarali muhit sifatida namoyon

bo'ldi. Kallus va ildiz hosil bo'lish vaqti 8.8-9.3 kun, novda o'sishi 0.7-0.8 sm darajasida bo'ldi. 3000-4000 mg/l konsentratsiya saqlanish va o'sishni pasaytirdi, toksik ta'sir ko'rsatdi. 2000 mg/l IBA va torf substrati regeneratsiya uchun eng yaxshi natijalarni berdi. Keyingi bosqichda qalamchalarni 0–200 mg/l IBA va 12–24 soat ishlov berish ta'siri o'rganildi. Eng yaxshi saqlanish 100 mg/l IBA va 18 soatda, ayniqsa yarim yog'ochlashgan qalamchalarda (62–65% ildiz otish, 2.1–2.2 sm ildiz uzunligi, 2.5–2.6 dona ildiz) kuzatildi. Yashil va yog'ochlashgan qalamchalarda ham 100 mg/l samarali bo'ldi (55–60% saqlanish). 150–200 mg/l konsentratsiyada saqlanish pasaydi. 18 soat ishlov berish vaqti optimal, yuqori konsentratsiya va uzoq vaqt saqlanishni kamaytiradi.

Dissertatsiyaning **“Ko'chat yetishtirishda substrat, sug'orish, o'g'itlash va yorug'lik ko'rsatkichlari ta'sirini aniqlash”** deb nomlangan to'rtinchi bobining birinchi qismida **“Substratning tarkibiy ko'rsatkichlari ta'sirini aniqlash”** bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqotlarimiz davomida *Ficus* va *Shefflera* turlarini o'simliklarining 1, 2, va 3 yillik ko'chatlari turli substrat va turli fasllarda ko'chirib o'tkazish bo'yicha tajriba sinov ishlari amalga oshirildi. Quyida *Ficus benjamin* o'simligini turli fasllarda nazorat sifatida oddiy bog' tuprog'i va 4 xil turli nisbatlardagi substratlar tayyorlandi va yilning 4 ta faslida ko'chirish ishlari amalga oshirildi. Tanlangan turlarning olingan 1, 2 va 3 yillik ko'chatlari issiqxonasi sharoitida ko'paytirilgan o'simliklar hisoblanadi.

Ficus benjamin ko'chatlarining 1-3 yillik o'sishi turli substratlar va fasllarda tahlil qilindi. Eng yaxshi natija 50% torf, 30% perlit, 20% kokos tolasi aralashmasi va bahor faslida kuzatilib, bo'y 9.5 sm, ildiz 7.5 sm, yangi barg 18 dona bo'ldi. Qishda o'sish sezilarli kamayib, bo'y 1.5–4 sm, ildiz 2–4 smga tushdi. Nazorat substratda o'sish pastroq bo'lib, yosh oshgani sayin o'sish kamaydi. Optimal substrat va bahor fasli o'sishni rag'batlantirdi, qish esa sekinlashtirdi.



2-rasm. Turli substratlarda ekilgan *Ficus benjamin* o'simliklari

Tadqiqotning **«Sug'orish ko'rsatkichlarining ta'sirini aniqlash»** deb nomlangan qismida *Ficus* turlari bo'yicha optimal sug'orish me'yorlari turli fasllarda o'simliklarning o'sish va rivojlanishini maksimal darajada qo'llab-quvvatlash uchun muhim rol o'ynaydi. Bunda substratdagi namlik darajasi, harorat va yorug'likni inobatga olgan holda, har bir o'simlik turi uchun aniq tavsiyalar berilgan.

Ficus benjamin o'simligi bahorda 0.4 litr suvni har 4 kunda talab qiladi, bu esa uning bo'y o'sishini 8.5 sm (± 0.3) ga, ildiz uzunligini esa 6.8 sm (± 0.3) ga yetkazadi. Yozda, o'simlik 0.5 litr suvga har 3 kunda ehtiyoj sezadi va bu sharoitda

o'sish o'xshash natijalarga ega bo'lib, yangi barglar va novdalar soni deyarli o'zgarmaydi.

2-jadval

***Ficus* turlari bo'yicha sug'orish me'yorlari (2022-2024 y.y)**

<i>Ficus</i> turlarii	Fasl	Maqbul sug'o-rish me'yori	Bo'y o'sishi (sm $\pm$ SD)	Ildiz uzunligi (sm $\pm$ SD)	Yangi barglar soni (dona $\pm$ SD)	Yangi novdalar soni (dona $\pm$ SD)
<i>F. benjamin</i>	Bahor	0,4 L har 4 kunda	8,5 $\pm$ 0,3	6,8 $\pm$ 0,3	16,0 $\pm$ 1,0	2,5 $\pm$ 0,5
	Yoz	0,5 L har 3 kunda	8,5 $\pm$ 0,3	6,8 $\pm$ 0,3	16,0 $\pm$ 1,0	2,5 $\pm$ 0,5
	Kuz	0,4 L har 5 kunda	7,5 $\pm$ 0,3	6,0 $\pm$ 0,3	14,0 $\pm$ 1,0	2,0 $\pm$ 0,5
	Qish	0,3 L har 7 kunda	5,0 $\pm$ 0,3	5,0 $\pm$ 0,3	10,0 $\pm$ 1,0	1,2 $\pm$ 0,5
<i>F. elastica</i>	Bahor	0,4 L har 4 kunda	7,5 $\pm$ 0,3	6,0 $\pm$ 0,3	14,5 $\pm$ 1,0	2,0 $\pm$ 0,5
	Yoz	0,5 L har 3 kunda	8,0 $\pm$ 0,3	6,5 $\pm$ 0,3	15,0 $\pm$ 1,0	2,0 $\pm$ 0,5
	Kuz	0,4 L har 5 kunda	7,0 $\pm$ 0,3	5,8 $\pm$ 0,3	13,5 $\pm$ 1,0	1,8 $\pm$ 0,5
	Qish	0,3 L har 7 kunda	4,8 $\pm$ 0,3	4,8 $\pm$ 0,3	9,5 $\pm$ 1,0	1,0 $\pm$ 0,5
<i>F. microcarpa</i>	Bahor	0,4 L har 4 kunda	8,0 $\pm$ 0,3	6,5 $\pm$ 0,3	15,5 $\pm$ 1,0	2,3 $\pm$ 0,5
	Yoz	0,5 L har 3 kunda	8,2 $\pm$ 0,3	6,5 $\pm$ 0,3	15,5 $\pm$ 1,0	2,3 $\pm$ 0,5
	Kuz	0,4 L har 5 kunda	7,2 $\pm$ 0,3	6,0 $\pm$ 0,3	14,0 $\pm$ 1,0	2,0 $\pm$ 0,5
	Qish	0,3 L har 7 kunda	5,0 $\pm$ 0,3	5,0 $\pm$ 0,3	10,0 $\pm$ 1,0	1,2 $\pm$ 0,5

Kuz va qishda esa sug'orish miqdori kamayadi, bahorgi davrga nisbatan esa bo'y o'sishi ancha sekinlashadi, bu esa o'simlikning sovuqda metabolizmning pasayishini va vegetatsiya jarayonlarini sekinlashishini ko'rsatadi. Kuzda o'simlik har 5 kunda 0.4 litr suv oladi va qishda esa 0.3 litr suvga ehtiyoj sezadi. Tadqiqotimizning sug'orish qismida ushbu ko'rsatkichlarga erishildi.

Ficus turlarida bahor va yozda sug'orish ko'proq bo'lib, o'sish yuqori (bo'y 7.5–9.0 sm, yangi barg 14–17 dona, ildiz 6.0–7.0 sm) qayd etildi. Kuz va qishda sug'orish kamayib, o'sish pasaydi. Eng yaxshi natijalar *F. maclellandii* va *F. cyathistipula* turlarida bo'lib, barglari porloq va holati yaxshi edi. Sug'orish fasl va o'sish faolligiga mos boshqarilish ijobiy natija berishi aniqlandi.

3-jadval

***Schefflera* turlari bo'yicha sug'orish me'yorlari (2022-2024 y.y)**

<i>Schefflera</i> turlari	Fasl	Maqbul sug'orish me'yori	Bo'y o'sishi (sm $\pm$ SD)	Ildiz uzunligi (sm $\pm$ SD)	Yangi barglar soni (dona $\pm$ SD)
<i>Schefflera actinophylla</i>	Bahor	0,5 L har 4 kunda	8,0 $\pm$ 0,4	6,5 $\pm$ 0,3	15,5 $\pm$ 1,2
	Yoz	0,6 L har 2 kunda	8,5 $\pm$ 0,4	7,0 $\pm$ 0,3	16,5 $\pm$ 1,2
	Kuz	0,4 L har 5 kunda	7,0 $\pm$ 0,3	6,0 $\pm$ 0,3	13,5 $\pm$ 1,0
	Qish	0,2 L har 10 kunda	4,5 $\pm$ 0,3	4,8 $\pm$ 0,3	9,0 $\pm$ 1,0
<i>Schefflera arboricola</i>	Bahor	0,4 L har 5 kunda	7,0 $\pm$ 0,3	5,8 $\pm$ 0,3	13,5 $\pm$ 1,0
	Yoz	0,5 L har 3 kunda	7,5 $\pm$ 0,3	6,2 $\pm$ 0,3	14,0 $\pm$ 1,0
	Kuz	0,4 L har 5 kunda	6,5 $\pm$ 0,3	5,8 $\pm$ 0,3	12,5 $\pm$ 1,0
	Qish	0,2 L har 10 kunda	4,2 $\pm$ 0,3	4,5 $\pm$ 0,3	8,5 $\pm$ 1,0
<i>Schefflera elegantissima</i>	Bahor	0,5 L har 4 kunda	8,2 $\pm$ 0,4	6,8 $\pm$ 0,3	15,0 $\pm$ 1,2
	Yoz	0,6 L har 2 kunda	8,8 $\pm$ 0,4	7,2 $\pm$ 0,3	16,0 $\pm$ 1,2
	Kuz	0,5 L har 4 kunda	7,2 $\pm$ 0,4	6,2 $\pm$ 0,3	13,0 $\pm$ 1,2
	Qish	0,25 L har 7 kunda	4,8 $\pm$ 0,3	5,0 $\pm$ 0,3	9,5 $\pm$ 1,0

Schefflera turlari bo'yicha optimal sug'orish me'yorlari faslga qarab farqlanadi va o'simliklarning o'sish, ildiz rivojlanishi va barglarning holati bilan bog'liq. O'zbekistonning kontinental iqlimi sharoitida, xonada turli fasllarda harorat va namlikning o'zgarishi, shuningdek substratdagi namlik darajasi, *Schefflera* o'simliklarining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Schefflera turlarida bahor va yozda sug'orish ko'proq (0.5–0.6 L, 2–4 kunda) bo'lib, o'sish va barg ko'rsatkichlari yuqori (bo'y 7–8.8 sm, ildiz 5.8–7.2 sm, barg 13–16.5 dona) ko'rsatkichni qayd etdi. Kuzda sug'orish kamayib, o'sish biroz pasaydi, qishda esa sug'orish eng kam (0.2–0.25 L, 7–10 kunda) va o'sish sekinlashdi. Sug'orish faslga mos holda o'sishni ta'minladi.

Umuman olganda, *Schefflera* turlari o'zining maqbul sug'orish me'yorlariga qarab o'z o'sishini va rivojlanishini maksimal darajada ta'minladi. Bahor va yozda sug'orish miqdori yuqori bo'lib, o'simliklarning bo'y o'sishi va ildiz rivojlanishi eng yuqori darajada bo'ldi. Kuz va qish fasllarida sug'orish miqdori kamaydi, bu o'simliklarning o'sish sur'atini sekinlashtirdi. Shu bilan birga, barglar holati yaxshi saqlanadi, bu esa o'simliklarning iqlimga moslashuvchanligini ko'rsatdi.

Tadqiqotning «O'g'itlash ko'rsatkichlarining ta'sirini aniqlash» deb nomlangan qismida Ushbu tadqiqotda *Ficus* va *Schefflera* jinslariga mansub manzarali ko'chatlarning vegetativ davrida ularning yashil biomassasi, barglar hosil qilishi va bo'y o'sishiga o'g'itlarning ta'siri baholandi.

4-jadval

Yetishtirishda o'g'itlash ta'siri ko'rsatkichlari (2022–2024 y.y)

O'g'it nomi (dozasi)	Yashil massa/ Barglar soni/ Bo'y uzunligi/	<i>F. microcarpa</i>	<i>F. benjamina</i>	<i>F. elastica</i>	<i>S. arboricola</i>	<i>S. digitata</i>	<i>S. actinophylla</i>
Nazorat (o'g'itsiz)	(g / dona / sm)	12.5 / 14 / 8.5	11.2 / 12 / 7.8	13.0 / 15 / 9.2	10.5 / 11 / 7.0	9.8 / 10 / 6.3	11.0 / 12 / 7.5
Kristallon 2.5 g/l (Yara, 25 kg)	(g / dona / sm)	19.0 / 20 / 13.5	17.4 / 18 / 12.5	20.5 / 21 / 14.8	16.7 / 17 / 11.2	15.6 / 16 / 10.2	17.2 / 18 / 12.0
Kristallon + Temir (2.5 g/l + 1 ml/l Ferovit)	(g / dona / sm)	21.0 / 22 / 15.0	20.3 / 21 / 14.3	22.0 / 23 / 16.2	18.5 / 19 / 13.0	17.9 / 18 / 12.5	19.8 / 20 / 14.2
Seaweed ekstrakti 2 ml/l	(g / dona / sm)	18.2 / 19 / 13.0	17.8 / 17 / 12.0	19.1 / 20 / 14.1	16.1 / 16 / 10.5	15.2 / 15 / 9.8	16.9 / 17 / 11.5

Ficus (*microcarpa*, *benjamina*, *elastica*) hamda *Schefflera* (*arboricola*, *digitata*, *actinophylla*) turlarida o'g'itlarning vegetativ o'sishga ta'sirini aniqlash maqsadida o'tkazilgan ushbu ilmiy tajribada uch xil o'g'it (Kristallon, Kristallon + Ferovit, Seaweed bioo'g'iti) va o'g'itsiz nazorat guruhi solishtirildi. Har bir variantda o'simliklarning yashil massasi (g), barglar soni (dona) va bo'y uzunligi (sm) kabi parametrlar 12 haftalik kuzatuv davrida o'lchab borildi. Har bir o'g'it uchun tavsiya etilgan konsentratsiyada foydalanildi: Kristallon – 2,5 g/l, Ferovit – 1 ml/l, Seaweed bioo'g'iti – 2 ml/l suvda eritilib, bargga purkash usulida qo'llanildi.

Tajriba sharoitlari issiqxona muhitida, 60% yorug'lik, 25–28°C haroratda va 70–80% namlikda tashkil etdi.

Kristallon va Temir (Ferovit) aralashmasi o'simliklarning yashil massasi, barg soni va bo'y uzunligini sezilarli oshirdi. Masalan, *Ficus macrocarpa*da yashil massa 12.5 g dan 21.0 g gacha, barglar soni 14 tadan 22 taga, bo'y uzunligi 8.5 sm dan 15.0 sm gacha o'sgan. O'g'itlar o'sish va rivojlanishni samarali rag'batlantiradi.

Tadqiqotning «Yorug'lik ko'rsatkichlarining ta'sirini aniqlash» deb nomlangan qismida *Ficus* va *Schefflera* jinslariga mansub manzarali ko'chatlarning yorug'likka bo'lgan ehtiyojlari tavsiflanadi. Bu bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan quyidagi natijalar olindi.

Deraza yo'nalishi o'simliklarning yorug'lik va quyosh soatlariga ta'sir qildi. Janubiy va janubiy-sharqda yozda 9–13 soat to'g'ridan-to'g'ri quyosh va yuqori yorug'lik (6000-10000 lyuks) bo'lib, o'sish uchun eng qulay sharoit yuzaga keldi. Shimoliy yo'nalishda yorug'lik past va diffuz bo'ldi. Kuz va qishda barcha yo'nalishlarda yorug'lik kamaydi. Shuning uchun janubiy yo'nalish o'simliklar uchun maqbul hisoblandi.

Ficus turlari uchun 3000-4000 lyuks yorug'lik, 5-8 soat quyosh, 22-28 °C harorat va 50-60% namlik eng yaxshi o'sish sharoitidir. Yuqori harorat yoki ortiqcha yorug'lik barg kuyishiga, kam yorug'lik esa o'sishning sekinlashishiga olib keldi. Qishda o'sish 30-50% kamayadi, shuning uchun yorug'lik va harorat nazorat qilinishi kerak.

Schefflera turlari yorug'lik va deraza yo'nalishiga qarab turlicha javob berdi. Umuman, 2000-3000 lyuks yorug'lik va 4-7 soat quyosh o'sish uchun optimal hisoblandi. Yuqori yorug'lik va uzoq quyosh ta'sirida barglar kuyib, o'sish sekinlashdi yoki to'xtadi.



3-rasm. *Schefflera* o'simligining vegetativ usulda yetishtirilgan ko'chatlari

Tadqiqotning «Ko'chat yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi» deb nomlangan qismida *Ficus benjamin* va *Schefflera* ko'chatlarini yetishtirish samaradorligini aniqlash uchun sarflanadigan materiallar va ish turlari xarajatlarini aniqlab olish zarur. 0.01 gektardan (100 kv²) maydondagi issiqxonadan 40000 dona qalmcha ekish mumkin. Quyida 3 –yillik davrdagi xarajatlar smetasi ishlab chiqildi.

1 sotix maydonda 40 000 dona qalamcha ekilib, 80% ko'karganidan keyin 32 000 dona doimiy idishga ko'chirildi. Yiliga 18 000 dona ko'chat sotilib, qolganlari issiqxonada saqlanib, 2 va 3 yillik ko'chatlar sifatida sotildi. 1 yillik ko'chatda sof daromad 63 000 ming so'm, rentabellik 140%, 2 yillikda 57 600 ming so'm sof

daromad bilan 200%, 3 yillikda esa 112 320 ming so‘m sof daromad va 355% rentabellik kuzatildi. Jami sof daromad 232 920 ming so‘m, jami xarajat 105 480 ming so‘m, umumiy rentabellik 221% ni tashkil etdi. Ushbu natijalar ko‘chat yetishtirish iqtisodiy samaradorligini va uzoq muddatli parvarishning foydaliligini ko‘rsatadi.

1 sotix maydonda 40 000 dona qalamcha ekilib, 32 000 dona ko‘chat yetishtirildi. 3 yillik davrda sof daromad 232,92 million so‘mga, rentabellik esa 221% ga yetishi aniqlanib, ko‘chat yetishtirish biznesining yuqori samaradorligi isbotlandi.

5-jadval

Ficus va *Shefflera* turkumi turlari ko‘chatlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi (0.01 ga issiqxona) (2022-2024 y.y)

Ko‘chat yoshi	Ko‘chat-lar soni (dona)	Sotish narxi (ming so‘m/dona)	Jami sotish daromadi (ming so‘m)	Bir dona tannarxi (ming so‘m)	Jami tannarx (ming so‘m)	Sof daromad (ming so‘m)	Rentabellik (%)
1 yillik	18,000	6	108,000	2.5/2,77	45,000	63,000	140
2 yillik	7,200	12	86,400	4	28,800	57,600	200
3 yillik	5,760	25	144,000	5.5	31,680	112,320	355
Jami	-	-	338,400	-	105,480	232,920	221

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, uch yillik ko‘chat yetishtirish eng yuqori rentabellikka ega bo‘lib, sof daromad 112 320 ming so‘mni tashkil etdi va rentabellik 355% ga yetdi.

Dissertatsiya mavzusi doirasida 2019-2024-yillarda o‘tkazilgan tadqiqot ishlari natijalari asosida quyidagi xulosalarni qilish uchun asos bo‘ldi:

1. *Ficus benjamina*, *F. elastica* va *Schefflera arboricola* turlarining yopiq sharoitdagi maksimal o‘shish balandligi 1,5–3,0 m bo‘lib, 3000 lyuks yorug‘likda, 22–28 °C harorat va 50–60% nisbiy namlikda maqbul rivojlanadi;

2. Manzaraviylik bo‘yicha *Ficus microcarpa* (5 ball), *F. benjamina* (4,3 ball) va *Schefflera arboricola* (4,5 ball) eng yuqori baholangan turlardir. *Schefflera arboricola* esa 2000 lyuks yorug‘likda soyaga chidamliligi bilan ajraladi;

3. *Ficus benjamina* yashil qalamchalari 3000 mg/l IBA va torf substratida 66,5–76,5% ildiz otgan bo‘lib, eng samarali natija qayd etildi, yog‘ochlashgan qalamchalarda bu ko‘rsatkich 49,5–61,5% oralig‘ida bo‘ldi;

4. *Ficus elastica* yashil qalamchalari uchun 2000 mg/l IBA va torf substrati 94,25% saqlanish, 6 kunda ildiz hosil bo‘lish, 3,6 sm ildiz uzunligi va 7,25 dona ildiz bilan eng yaxshi regeneratsiya sharoitini yaratdi;

5. *Schefflera arboricola* yarim yog‘ochlashgan qalamchalari 2000 mg/l IBA va torf asosli substratlarda 70–85% ildiz otib, 2,8 sm gacha ildiz uzunligi va 3,6 dona ildiz hosil qildi, 3000 mg/l dan yuqori konsentratsiya o‘shishni pasaytirdi;

6. 100 mg/l IBA konsentratsiyasida 12–18 soat ishlov berish *Schefflera arboricola* qalamchalarining barcha turlarida 55–65% saqlanish, 2,0–2,2 sm ildiz uzunligi bilan natija berdi, 150–200 mg/l konsentratsiya esa toksik ta’sir ko‘rsatdi;

7. *Ficus benjamina* ko'chatlarining 1–3 yillik o'sishi uchun eng samarali substrat – 50% torf, 30% perlit va 20% kokos tolasi aralashmasi bo'lib, ayniqsa, bahor faslida o'sish maksimal darajada (bo'y 9,5 sm, ildiz 7,5 sm, yangi barg 18 dona) qayd etilgan. Qishda esa o'sish 3–4 barobar kamayadi. Shuningdek, yosh ko'chatlar tez o'sadi, yoshi ortgan sari o'sish sekinlashadi;

8. *Ficus* va *Schefflera* turlarida bahor-yoz mavsumida sug'orish ko'payishi bilan o'sish ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi (*Ficus*da bo'y 7,5–9 sm, barg 14–17 dona, ildiz 6,0–7,0 sm; *Schefflera*da bo'y 7–8,8 sm, ildiz 5,8–7,2 sm). Qishda esa sug'orish kamayib (0,2–0,25 L har 7–10 kunda), o'sish sezilarli darajada pasayadi. Sug'orish hajmi va chastotasi faslga moslashtirilganida maqbul natijalar olinadi;

9. Kristallon va Ferovit o'g'itlari o'simliklarning yashil massasi, barg soni va bo'y o'sishini 60–80% ga oshirdi. *Ficus macrocarpa* yashil massa 12,5 g dan 21,0 g gacha, barglar soni 14 tadan 22 taga, bo'y esa 8,5 sm dan 15,0 sm gacha o'sdi;

10. *Ficus* turlari uchun maqbul yorug'lik 3000–4000 lyuks, quyosh nuri 5–8 soat, harorat 22–28 °C bo'lib, janubiy va janubi-sharqiy derazalarda (yozda 9–13 soat yorug'lik) o'sish eng yuqori darajada bo'ladi. Qishda yorug'lik kamayadi va o'sish 30–50% pasayadi. *Schefflera* turlari esa 2000–3000 lyuks yorug'lik va 4–7 soat quyosh nuri ostida yaxshi o'sadi;

11. 1 sotix maydonda ekilgan 40 000 dona qalamchadan 32 000 dona ko'chat yetishtirilib, 3 yillik davrda umumiy sof daromad 232,92 million so'm, rentabellik 221% ga yetdi. 3 yillik ko'chatlarda rentabellik eng yuqori (355%) bo'lib, uzoq muddatli parvarish iqtisodiy jihatdan foydalidir;

12. *Ficus* va *Schefflera* turkumi turlari orasidan yuqori manzarali turlar sifatida *Ficus microcarpa*, *Ficus benjamina*, *Ficus elastica* va *Schefflera arboricola* turlarini ekish;

- *Ficus benjamina* yashil qalamchalari IBA ning 3000 mg/l konsentratsiyasida *Ficus elastica* yashil qalamchalari IBA ning 2000 mg/l *Schefflera arboricola* yarim yog'ochlashgan qalamchalari IBA ning 2000 mg/l li konsentratsiyasida 10 soniya botirib olish orqali va torf substratida ekish orqali ko'paytirish;

- 8 hafta davomida ildiz oldirilgan ko'chatlarni 50% torf, 30% perlit, 20% kokos tolasi aralashmasiga ekish 2–3 yillik ko'chatlarni esa bahor mavsumida ko'chirib o'tkazish;

- O'simliklarni faslga mos sug'orish (yozda 0,5–0,6 L, qishda 0,2–0,25 L) bilan birga Kristallon va Ferovit kabi mikroelementli o'g'itlardan foydalangan holda parvarishlash hamda *Ficus* turlari uchun 3000–4000 lyuks, *Schefflera* uchun 2000–3000 lyuks yorug'lik va kamida 5 soat quyosh nuri tushadigan joyda saqlash tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ АГРАРНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ЭГАМБЕРДИЕВ ШАХЗОД БАХОДИР УГЛИ

**ТЕХНОЛОГИЯ ПОДБОРА И ВЫРАЩИВАНИЯ ВИДОВ *FICUS L.* И
SCHEFFLERA J.R.FORST. & G.FORST. ПРИ ОЗЕЛЕНЕНИИ
ИНТЕРЬЕРОВ**

**06.03.01 – Лесные культуры. Селекция, семеноводство и озеленение городов.
Агролесомелиорация и защитное лесоразведение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

ТАШКЕНТ – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/Qx1048.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном аграрном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tdau.uz) и в Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Бердиев Эркин Турдалиевич

доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Официальные оппоненты:

Тухтаев Бобокул Ёркулович

доктор биологических наук, профессор

Мисирова Сурайё Абдумуталовна

доктор сельскохозяйственных наук

Ведущая организация:

Научно-исследовательский институт лесного хозяйства

Защита диссертации состоится 11 ноября 2025 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 при Ташкентском государственном аграрном университете (Адрес: 100140, Ташкент, ул. Университетская, 2-дом. Тел.: (+99871) 260-48-00; факс: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz. Здание Информационно-ресурсного центра Ташкентского государственного аграрного университета, 2- этаж, конференцзал).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного аграрного университета (зарегистрирована за номером 555123). (Адрес: 100140, Ташкент, ул. Университетская, 2-дом. Ташкентский государственный аграрный университет, здание Информационно-ресурсного центра. Тел.: (+99871) 260-50-43).

Автореферат диссертации разослан 30 октября 2025 г.
(реестр протокола рассылки № 41 от 14 октября 2025 г.).

Ш.И. Асатов

Председатель Научного совета
по присуждению учёных
степеней, д.с.х.н., профессор

М.З. Холмуротов

Ученый секретарь Научного
совета по присуждению учёных
степеней, д.ф.с.х.н., доцент

С.А. Юнусов

Председатель научного
семинара при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.с.х.н., профессор.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современном мире около 60 % населения проживает в городских районах, тогда как в 1800 году данный показатель составлял лишь 3 %. В странах Азии уровень урбанизации достиг 50 %, и процесс её роста продолжает активно расти. Это связано с резким увеличением числа городских территорий и зданий. «Среди крупнейших по площади городов лидирующие позиции занимают Чунцин (82 403 км²), Гуанчжоу (16 847 км²) и Пекин (16 411 км²)»¹. Северная Америка является одним из крупнейших регионов в данной области и занимает лидирующие позиции цветочном рынке. Нидерландия ежегодно выращивает около 1 миллиарда экземпляров комнатных растений. «В 2024 году глобальная стоимость рынка комнатных растений оценивалась в 20,68 миллиарда долларов США, при этом в период 2025–2032 годов прогнозируется среднегодовой темп роста (CAGR) на уровне 4,87%»². Рост числа закрытых помещений и процессы современной урбанизации приводят к ухудшению качества воздуха в офисах, жилых и общественных зданиях, снижению влажности и, как следствие, к различным проблемам со здоровьем. В связи с этим озеленение интерьеров с использованием растений родов *Ficus* и *Schefflera* становится глобальной тенденцией, способствующей улучшению микроклимата и повышению экологической устойчивости городских пространств.

